

MUSBAT VA MANFIY SONLAR. BUTUN SONLAR HAQIDA TUSHUNCHA




Eslaymiz!



Sonlar qatorini o'qiymiz. Ular qanday sonlar?

1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; ...

0 soni-chi?



Kundalik hayotda yana qanday sonlarni uchratamiz?



Ob-havo



+4° -4°

 $+4^{\circ}\text{C} \rightarrow 4$ daraja issiqni, $-4^{\circ}\text{C} \rightarrow 4$ daraja sovuqni bildiradi.

Sonlar oldida “+” ishorasi bo'lsa, ular **musbat sonlar** deyiladi.
 Odatda bu sonlar oldidagi “+” ishorasi yozuvda tushib qoladi. Demak,
 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9; 10; 11; 12; 13; ... $\rightarrow$ **musbat sonlar**.

Sonlar oldida “-” ishorasi bo'lsa, ular **manfiy sonlar** deyiladi.-1; -2; -3; -4; -5; -6; -7; -8; -9; -10; -11; -12; -13; ... $\rightarrow$ **manfiy sonlar**.

Bir-biridan faqat ishorasi bilan farq qiladigan sonlar
qarama-qarshi sonlar hisoblanadi.

0 $\rightarrow$ musbat ham, manfiy ham emas.Natural sonlar, ularga qarama-qarshi bo'lgan sonlar va nol **butun sonlar** deyiladi.**{ ..., -7; -6; -5; -4; -3; -2; -1; 0; 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; ... }**0; 7; 212 va -1023 $\rightarrow$ butun sonlar. $\frac{1}{2}$; 1,1 va -5,2 $\rightarrow$ butun sonlar emas.


Guruhlarda ishlaymiz: 1-2.

1. Berilgan sonlar bilan jadvalni to'ldiring.

-8; -2; 0; 2; 8; -7; -1; -0,(2); -2,2(1);
 0,5; 12; -15; -9; 11; 21; -10; $\frac{1}{4}$; $-\frac{7}{9}$;
 -3; 0; 9; 14; -6; -4; 0,7.


Butun sonlar	
Musbat butun sonlar	
Manfiy butun sonlar	

2. Rasmdagi termometrlar yordamida haroratning o'zgarishini tushuntiring.



Mustahkamlash: 3–9.

3. Termometrlardagi ob-havo harorati ko'rsatkichini aniqlang.



4. Bank plastik kartasiga tushgan pul miqdori musbat sonlarda, plastik hisob raqamidan olingan pul mablag'lari esa manfiy sonlarda ifodalanadi. Quyidagi jadval asosida monitoringni o'qing.

	MA'MURAXON YUSUPOVA	🕒 09:37 31.10.2021 -23 000.00 UZS
	OCHILOVA ZAMIRA	🕒 14:27 28.10.2021 +30 000.00 UZS
	MOHIRJONOV USMONJON	🕒 12:25 10.10.2021 +15 000.00 UZS
	Davlat Test Markazi (DTM)	🕒 14:55 20.07.2021 -124 195.75 UZS
	Ucell	🕒 08:02 20.07.2021 -4 000.00 UZS
	Gaz. Toshkent shahri	🕒 15:24 19.07.2021 -50 000.00 UZS
	Sovuq suv va kanalizatsiya	🕒 15:23 19.07.2021 -50 000.00 UZS
	Elektroenergiya	🕒 15:22 19.07.2021 -29 000.00 UZS

5. Kunduzgi va kechki ob-havoni tahlil qiling.



6. Tavsiflarga mos keladigan butun sonlarni yozing.
- Elektr energiyasidan haqдорlik 40 ming so'm, gazdan qarzdorlik esa 225 ming so'm.
 - Hazrati Sulton cho'qqisi dengiz sathidan 4648 m balandlikda, Chirchiq daryosi sohili dengiz sathidan 380 m pastda.
 - Haroratning 40°C ga isishi, 10°C ga sovishi.
 - Kit okean sathidan 100 metr pastda.
 - Aysberg dengiz sathidan 125 metr balandlikda joylashgan.

7. Jadvalda shaharlardagi 2022-yil 1-yanvarga oid harorat ko'rsatilgan.

Shaharlar	Harorat
Qohira	15°C
Kopengagen	1°C
Helsinki	-9°C
Liverpul	3°C
Moskva	-14°C
Sidney	20°C

- Eng past harorat ko'rsatilgan shahar qaysi?
 - Kopengagen va Qohiradagi harorat qanchaga farq qiladi?
 - 2003-yil 2-yanvarda Moskvada havo harorati 4°C ga ko'tarilgan. Moskvadagi yangi haroratni hisoblang.
8. Smartfonning ob-havo ilovasida harorat Londonda -7°C , O'zbekistonda esa $+2^{\circ}\text{C}$ ni ko'rsatdi. Londondagi harorat O'zbekistondagidan necha gradus farq qilmoqda?
9. Quyidagi savollarga javob bering.
- Qanday sonlar "musbat sonlar" deyiladi? Musbat butun sonlar-chi?
 - Qanday sonlar "manfiy sonlar" deyiladi? Manfiy butun sonlar-chi?
 - Qanday sonlar musbat ham, manfiy ham emas?
 - Barcha natural sonlarni butun sonlar deyish mumkinmi? Musbat natural son deyish-chi?
 - Do'stingiz: "Kasrlar butun sonlardir", – deb aytdi. Uning fikriga qo'shilasizmi?



Mustaqil ish: 10–12.

10. Sotuvchi Salima xola bir xil miqdordagi 4 xil mahsulot sotib olib, keyinchalik ularni sotdi. Jadval asosida foyda yoki zararni aniqlang.

	Sotib olish narxi (so'm)	Sotish narxi (so'm)	Foyda (so'm)	Zarar (so'm)	Savdo natijasi (so'm)
1	95 500	100 000			
2	124 000	123 000			
3	142 000	156 000			
4	173 000	171 500			
Jami					

11. Ob-havo harorati ko'rsatkichini "+" va "-" ishoralaridan foydalanib yozing.

- 36°C issiq
- 17°C issiq
- 7°C sovuq
- 18°C sovuq
- 1°C sovuq
- 1°C iliq

12. Termometr yordamida ob-havo haroratini hafta davomida kuzating va yozib boring. Xulosa tayyorlang.